

Oriental Journal of Education



THE SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING

Barno Sayfutdinovna Abdullayeva

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences

Uzbekistan National Pedagogical University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: creative thinking, generation of effective ideas, technological innovations, individual-reflexive factors, non-standard situations.

Received: 27.11.25

Accepted: 28.11.25

Published: 29.11.25

Abstract: This article offers a comprehensive and conceptually enriched examination of the socio-philosophical significance of developing creative thinking among university students. Creativity is viewed as a multidimensional construct that fosters intellectual growth, enhances problem-solving abilities, and strengthens students' capacity for independent decision-making and adaptation to the rapidly evolving technological and social landscape. The discussion situates creativity within the broader frameworks of digital transformation, innovation-driven development, and the knowledge-based economy, demonstrating its essential role in shaping socially active, culturally engaged, and future-oriented individuals. From a philosophical perspective, creativity is conceptualized as a driving force behind cultural evolution, social transformation, and the continuous generation of new meanings and practices in society. The article substantiates that fostering creative thinking not only enriches the educational process but also contributes to the cultivation of an innovative and resilient society capable of responding to global challenges and sustaining long-term development.

TALABALAR KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI

Barno Sayfutdinovna Abdullayeva

Pedagogika fanlari doktori

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti professori

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, samarali g'oyalarni yaratish, texnologik yangiliklar, individual-refleksiv omillar, nostandart vaziyatlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalar kreativ fikrlashini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati keng qamrovli tahlil qilingan. Kreativ fikrlash nafaqat shaxsning intellektual salohiyatini ochib beruvchi jarayon, balki uning ijtimoiy faolligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, innovatsion muhitga moslasha olish darajasi va professional rivojlanishidagi strategik omil sifatida talqin etiladi. Raqamli jamiyat sharoitida kreativlikning metodologik talqini, uning iqtisodiy modernizatsiya, texnologik yangilanish va bilimga asoslangan iqtisodiyotda tutgan o'rni falsafiy konsepsiyalar bilan uyg'un holda ochib beriladi. Shuningdek, maqolada kreativ fikrlashning madaniy dinamika, ijtimoiy o'zgarishlar, global raqobat va ta'lim tizimining transformatsiyasidagi roli o'ziga xos nazariy yondashuvlar orqali asoslab berilgan. Kreativlikni rivojlantirish talabalarning refleksiv tafakkuri, nostandart vaziyatlarda orientatsiya qila olish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va ijtimoiy innovatsiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Ushbu jarayonning jamiyat barqaror taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi ham nazariy, ham amaliy dalillar asosida yoritiladi.

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО
МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ**

Барно Сайфутдиновна Абдуллаева

Доктор педагогических наук

Профессор Узбекского национального педагогического университета

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: креативное мышление, создание эффективных идей, технологические инновации, индивидуально-рефлексивные факторы, нестандартные ситуации.

Аннотация: В статье представлено развернутое исследование социально-философского значения развития креативного мышления студентов, рассматриваемого как комплексный феномен, влияющий на интеллектуальный, социальный и профессиональный рост личности. Показано, что креативность является ключевым условием формирования способности к нестандартному анализу, самостоятельному решению проблем, генерации новых идей и адаптации к быстро изменяющимся социально-технологическим условиям современности. Особое внимание уделено роли креативности в контексте

цифровой трансформации, инновационной экономики и культурной динамики общества. Также раскрывается философская сущность творчества как механизма социального обновления, культурного прогресса и производства новых смыслов. Подчеркивается, что развитие креативного мышления студентов способствует формированию инновационно активной, социально ответственной и конкурентоспособной личности, обладающей высоким потенциалом для реализации социально значимых инициатив.

Kirish. XXI asrda shaxsning kreativligi, intellektual imkoniyatlari hamda ijodiy fikrlash ko'nikmasi jamiyat rivojlanishi uchun muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, kreativlikka bo'lgan talab axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, madaniyat, san'at va ta'lim jabhalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar jarayonida yanada oshib borayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Bugungi kunda kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qo'yilgan vazifaga faqatgina kreativ ta'limni maqsadli holda olib borish bilan erishish mumkin, bunda pedagogik jarayonning har bir ishtirokchisiga yangi bilimlarni tushuntirish, yaratish va undan samarali foydalanish uchun sharoit yaratishga imkon beradi.

Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida mutaxassislarning kreativ fikrlashga tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, AQShning Garvard universitetida tashkil etilgan Career Services markazi tomonidan ish beruvchilar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra ishtirokchilarning 74,8% qismi malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezon sifatida kreativlik va nostandart tafakkur tarzi bilan bog'liq sifatlarini belgilagan. Singapurdagi Nan'yan texnologiya universiteti Biznes maktabida ham aynan shunga o'xshash so'rovnoma natijasida 62,5% ish beruvchilar bitiruvchining kreativlik sifatlarini muhim sifatlar qatoridagi uchlikka kiritishgan.

Kreativlik — bu yangi, original hamda samarali g'oyalarni yaratish qobiliyati sanalib, u insonning tafakkur faoliyatining eng yuksak bosqichini ifoda etadi. Zamonaviy dunyoda kreativ fikrlash san'at va adabiyot sohasidagina chegaralanib qolmay, balki turli-tuman sohalar, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, fan va texnologiyaning muhim rol o'ynaydigan tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Muhim jihati shundaki, kreativlik jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo'lib hissa qo'shadi. Turli sohalaridagi eng yaxshi yutuqlar, texnologik yangiliklar, innovatsion loyihalar kreativlikning natijasi hisoblanadi. Masalan, Elon Musk yoki Steve Jobs kabi mashhur shaxslar

o'zlarining kreativliklari sababli dunyo iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'ldilar. Ular yangi g'oyalarni ishlab chiqish, mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish orqali global o'zgarishlarga sababchi bo'ldilar. Shunday qilib, kreativlik o'sish, innovatsion rivojlanish va iqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Kreativlikning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini, eng avvalo, shaxsning individual rivojlanishida ko'rishimiz mumkin. Inson o'zidagi ma'lum potensialni anglab yetishi, atrof-muhitdagi muammolarga yangi yechimlar bera olishi uchun kreativlik maydonga chiqadi.

Shundan kelib chiqqan holda amerikalik psixolog J. Gilford kreativ fikrlashni divergent fikrlash bilan ulaydi. Bunday nuqtai nazardan, ijodiy insonlar bir emas, bir nechta, har xil yechimlarni topish, voqea-hodisalarga yangicha tomondan nazar sola olish qobiliyatini o'zlarida mujassam etadilar. Shuningdek, bu holat shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, mustaqil fikr, hayot tarzi va faoliyatga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Ta'lim tizimida ham kreativlik alohida o'ringa ega. An'anaviy yodlash va takrorlash asoslangan usullar zamonaviy talablarga endi javob bera olmaydi. Ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi usullar orqali o'quvchi va talabalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatlari shakllanadi.

Kreativlik shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismidir. U shaxsni o'z salohiyatini to'laqonli ifoda etishga chorlaydi, jamiyatda yangiliklarni ilgari suradi va madaniy taraqqiyotga xizmat qiladi. Zamonamizda muvaffaqiyatli bo'lishni xohlagan har bir shaxs kreativlikni o'zining asosiy quroliga aylantirishi zarur. Shu sababli, ta'lim, ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimlarda kreativlikni rivojlantirishni muhim masala sifatida ko'rish lozim.

Shuningdek, kreativlik xalqaro, madaniy aloqalarni rivojlantirishda ham muhim o'ringa ega. Turli xil millat, din va madaniyat vakillarining o'zaro munosabatlari, muloqoti va hamkorligini ta'minlash maqsadida ijodiy loyihalar amalga oshirilishi ham bejizga emas. Teatr, kino, adabiyot, musiqa va boshqa san'at turlari orqali insonlar ma'lum g'oyalar atrofida birlashadi. Bu jihatdan kreativlikka global muloqot vositasi sifatida qarashimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy psixologiya va falsafa fanida bugungi kunda «kreativlik» atamasining yagona talqini mavjud emas. Tadqiqotlarda kreativlik bilan bog'liq juda ko'p tushunchalarni topish mumkin. Ijodkorlik, ijodiylik, ijodiy, evristik, sermahsul, divergentli, lateral fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, ijodiy faoliyat, ijodiy motivasiya, o'z-o'zini faollashtirish, o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish kabi tushunchalar kreativlik muammosi bilan bog'liq konseptual ro'yxatning bir qismi hisoblanib, mazkur tushunchaning noaniqligi va xilma-xilligini yanada kuchaytiradi.

Kreativlik tushunchasining ta'rifini o'rganish uchun turli olimlarning g'oyalarini tahlil qilish asnosida biz har xil yondashuvlarga duch kelamiz va ular bir-birini to'ldirib, uyg'unlikni yaratib, ongimizda yaxlit bir kreativlik tasvirini hosil qiladi.

Guilfordning fikriga ko'ra, kreativlik ijodkor kishilarga xos bo'lgan qobiliyatlarni anglatadi. Ijodiy qobiliyatlar shaxsning e'tiborga loyiq darajada ijodiy xatti-harakatlarni namoyon eta olish kuchiga ega ekanligini belgilaydi [1].

K.Rogersning qayd etishicha, kreativlik bir tomondan shaxsning o'ziga xosligidan, boshqa tomondan esa uning hayotidagi materiallar, voqealar, odamlar yoki vaziyatlardan kelib chiqadigan yangi munosabatli mahsulotning harakatda namoyon bo'lishidir [2].

Torrens kreativlikni muammolar, kamchiliklar, bilim bo'shliqlari, yetishmayotgan elementlar, uyg'unsizliklar va shu kabilarga nisbatan sezgirlik hosil qilish jarayoni; qiyinchiliklarni aniqlash; yechimlarni izlash, kamchiliklar haqida taxminlar qilish yoki farazlar shakllantirish, ushbu farazlarni sinab ko'rish va qayta sinash, zarur hollarda ularni o'zgartirish va yana sinovdan o'tkazish, va nihoyat, natijalarni e'lon qilish deya tavsiflaydi [3].

Torrensning kreativlikni o'rganish va ta'limda qo'llashning kelajagi uchun optimistik nuqtai nazarni ilgari suradi. U o'tgan asrdagi ta'lim tizimlarining statik maqsadlari bilan zamonaviy jamiyatning tez o'zgaruvchan talablariga mos kelmasligini ta'kidlaydi. Ijodiy ta'limni rivojlantirish uchun o'qituvchilar va jamiyat yangi bilimlarni qabul qilishga va ijodiy yondashuvlarni joriy etishga tayyor bo'lishi darkor. Torrensning olib brogan ilmiy izlanishlari ta'lim tizimida har bir shaxsning ijodiy potentsialini ro'yobga chiqarishga qaratilgan yangi imkoniyatlarni ochadi va ijodkorlikni faqat elita uchun emas, balki hamma uchun ochiq bo'lgan jarayon sifatida namoyon etadi [3].

G.Alder kreativ odamni tasvirlab, unda umumiy prinsipni, g'oyani yoki fikrni bilish sharti bilan yo'qolgan aloqalarni, tafsilotlarni osongina tiklash, ba'zi rag'batlantiruvchi ma'lumotlar asosida to'ldirish qobiliyati mavjudligini ta'kidlaydi.

G.Alder insonning konvergent fikrlash qobiliyatini ta'kidlab, uni faqat to'g'ri javobni topishga qaratilgan aqliy faoliyat, kerak bo'lganda, tafsilotlarga e'tibor berish qobiliyati deb ta'riflaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, divergent fikrlash qobiliyati konvergent tafakkurning teskarisidir. U hech narsa bilan chegaralanmagan bo'lib, bu holda yagona to'g'ri javob yo'q. Bu xususiyat ijodiy fikrlashning immanent (ichki) xususiyati maqomiga ega. Kreativlikni o'lchashning psixometrik usullari aynan shunga asoslanadi

G.Alderga ko'ra, eng qiyin vazifalarni oldindan aytib bo'lmaydigan natijalari bilan hal qilishda tavakkalchilikka tayyorlik, umum e'tirof qilingan fikrlarga qarshi borish kreativli shaxslarning eng yorqin xususiyatlaridan biridir.

A.Adler ham Z.Freyd ta'limotiga qo'shilgan holda «ijodkorlik» tushunchasini «Men – kreativlik» g'oyasi orqali ochib beradi. U inson o'z shaxsiyatini o'zi yaratadi, o'z taqdirining egasi

bo'lib, kim bo'lishi va u o'zini qanday tutishi uchun javobgardir. Men – kreativlik har bir inconni erkin shaxsga aylantiruvchi ijodiy kuchdir. Tanlov erkinligida shaxsning o'z-o'zini aniqlash va o'ziga xosligi namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi.

Freydchilarning qarashlari individual o'ziga xosliklariga ega bo'lib, ijod manbalari kishilar ongi va bilimidan tashqarida yotadi, degan fikrda umumlashadi.

Insonda ijodiy tomonning ustuvorligini tan olish gumanistik psixologiyaning eng muhim konsepsiyasidir (G.Olport, A.Maslou, K.Rodgers, N.Rodgers va boshqalar). A.Maslouning fikricha, kreativlikning dastlabki manbai – o'z-o'zini amalga oshirish ehtiyoji, shaxsning o'z iste'dodlari, qobiliyatlari va salohiyatidan to'liq foydalanishdir. O'z asarlarida shunday yozadi: «Odamlar kim bo'lishi kerak bo'lsa, shunday bo'lishlari lozim. Ular o'z tabiatiga sodiq bo'lishi kerak». O'z-o'zini faollashtirishda shaxs integrasiyasi yotadi, shu orqali bo'linishni yengadi, o'z imkoniyatlarini, borliq mohiyatiga yaqinliklari namoyon bo'ladi.

K.Rodgers, G.Olportlarning fikricha, shaxsiy o'sish uchun motivasiya katta murakkablik va to'liq faoliyat yo'nalishi bo'yicha rivojlantirish uchun barcha odamlarga turtki beradi. K.Rodgersning namoyon bo'lish konsepsiyasi motivasiya, zo'riqish, ehtiyojlar va ijodkorlikning butun sohasini o'z ichiga oladi. Ijod mahsullari (g'oyalar, loyihalar, harakatlar) va ijodiy turmush tarzi «yaxshi» hayot kechirayotgan insonda namoyon bo'ladi.

Veysbergning nuqtai nazarini ham juda qiziq. Unga ko'ra, «ijodkorlik» degan tushuncha mavjud emas, divergentli fikrlash, daholik, noyob badiiy iste'dod ijod fani tomonidan yaratilgan afsonalardan boshqa narsa emas.

Har xil muhim qarorlarni qabul qilish inson ichki xususiyatlarini joriy qiladi va insonning ilgari tajribalari egaligi muhimdir. Muhim qarorlar va ularni amalga qo'llash ma'lum darajada ijtimoiy munosabatlar bilan birga keladi, bu davrda inson qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa unga o'z kuchini his qilish va "Men"ni idrok etishni o'zgartirish imkonini beradi. Bunday holda, asosiy maqsad inson tomonidan ma'lum bir yo'lni tanlashdir. Odatda tashqi muhit insonga aniq muammoni joriy qilmaydi, bu aniq natijadir. Bu tanlov amalga oshirilgunga qadar, har bir vosita qanchalik kuchli bo'lmasin, faqat bitta imkoniyatni ifodalaydi.

Darhaqiqat, ma'lum bir muhitda qolib ketgan, lekin tanlashda passiv bo'lgan shaxs uchun ko'plab yashirin xususiyatlar foydalanilmayapti. Masalan, oliy ta'lim muassada ta'lim olish va aqliy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar beradi, bundan tashqari, uzluksiz professional munosabatlarga olib keladi. Ammo, bu imkoniyatlar insonga zo'rlik bilan berilmaydi, ular mumkin bo'lishi va shaxsdan faol ravishda amalga oshirilishi, kerakli tarkib bilan boyitilishi kerak.

Ushbu fikrlar, shubhasiz, nafaqat shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga, balki yashirin inson resurslari salohiyatini rag'batlantirishga qaratilgan shaxsiyatni rivojlantirish maqsadlarini tushunishni kengaytiradi. Bu resurslardan biri inson ijodidir.

Tahlil va natijalar. O'rganilgan ilmiy izlanishlar natijasida talabalar kreativ fikrlashini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati nuqtai nazaridan fikr yuritilganda kreativlik xususiyatlarini darajaviy ifodalanishi ramziy va majoziy fikrlashning konvergent tafakkur ta'sirida semantik qobiliyatga integrativ rivojlanishi tufayli kognitiv-intellektual kompetentlikni shakllantiruvchi muhim individual omil ekanligi hisoblanadi. Shuningdek, talaba-yoshlarda divergent tafakkurni namoyon bo'lishiga individual-refleksiv omillarning bevosita ta'siri nostandart vaziyatda yechim topish qobiliyatiga hissiy sezgirlikni singdirish orqali ijobiy o'zgarishi tufayli semantik va spontan moslashuvchanlikni rivojlanishiga to'g'ri proporsional ekanligi asoslanadi. Shu jumladan, talabalarning fikrlash jarayoniga kreativlik omillarining ta'siri natijasida individual-kreativ xususiyatlardan tavakkalchilikka moyillik, qiziquvchanlikning proyektiv tafakkurga integratsiyasini ta'minlanishi tufayli ijodiy tasavvurlarni rivojlantirish mumkinligi aniqlandi.

R.Stenberg ijtimoiy kontekstda kerativlikni «sog'lom aql va intellektning dialektik o'zaro ta'siri» deb hisoblaydi. Intellekt jamoatchilik ehtiyojlarini qondirish uchun keng qo'llaniladi. «Kreativlik o'zini jamoatchilik muammolariga shubha bilan qaraydi va o'zini unga qarshi qo'yadi, yanglilarini taklif qilib boradi. Sog'lom aql esa «eski va yangilar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi», «jamiyat kontekstidagi o'zgarishlar va barqarorlik»ka erishadi.

Intellektni R.Stenberg «atrof-muhitga moslashish qobiliyati» deb hisoblaydi. Muvaffaqiyatli moslashish belgisi esa mukofot olishdir (keng ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda). Kreativlik «sifat jihatidan yuqori emas, balki yangi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati» deb ta'riflanadi.

«Intellektli odamlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati yuqori, lekin, albatta, yangi bo'lishi shart emas». Muallifning taxminicha, ko'plab yuqori kreativli shaxslar «olomonga qarshi chiqishadi». Shundan kelib chiqib, muallif «kreativlik faqat uni hukm qiluvchi tizim kontekstida ahamiyat kasb etadi», «bir tizimda kreativ bo'lgan narsa boshqa bo'lishi mumkin emas», degan xulosaga keladi.

Hozirgi zamon ilmshunoslik kontekstida shaxs ijodiy salohiyati fenomenologiyasi muammosini tahlil qila turib aytishimiz mumkinki, hayot faoliyati jarayonida ijodiy salohiyatni ilmiy jihatdan ko'rib chiqish inson haqidagi fan uchun ma'lum darajada yangi mavzudir. Ushbu ma'lumotlar nafaqat maqsadga muvofiq, balki tobora zarurdir, chunki bu jarayonlarni bilish yuqori darajadagi ijodiy shaxslarni shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur shartlar yaratish borasida davlat darajasidagi siyosatni ishlab chiqish imkonini beradi.

Yuksak darajadagi ijodiy salohiyatga ega insonlar mamlakatning haqiqiy boyligini tashkil etadi. Albatta, har bir shaxsning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadigan jamiyat insonparvar hisoblanadi.

Shaxsning ijodiy salohiyati va umuman intellektual salohiyatining tabiatini ochib berish borasida biz tomondan ko‘rib chiqilgan yondashuvlar insonning rivojlanish jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatadigan faol subyekt sifatida nisbatan yangi ko‘rinishni ifodalaydi.

Madaniyat va fan tarixida zamondoshlari tomonidan tan olinmagan daholarga oid ko‘plab misollar mavjud. Muallif intלקtני kreativlikning sharti deb hisoblaydi, «chunki ijodiy mahsulotlar yuqori sifatga ega. Kreativlik qaror qabul qilish bilan bog‘liqdir, ya’ni «istalgan kishi kreativ ustanovkani qabul qilishi, kreativ fikrlashi mumkin».

Biroq turli sabablarga ko‘ra, «odamlar buni qilmaydi». Ba’zilar olomonga yon bosish uchun aqliy qobiliyatlaridan foydalanadi, boshqalari esa olomonga qarshi chiqish uchun bu imkoniyatidan foydalanishadi.

Emperik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantirish natijalaridan biri sifatida ijodiy va motivatsion natijalarning rivojlanishiga ko‘maklashadigan “Men” idealining o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin. V.V.Davidov asarlariga tahlil qilishda davom etib, shaxs kreativ salohiyatining shakllantirish omillarini aniqlashimiz mumkin. Bu esa, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ijodiy komponentning rolini ta’kidlaydi. Olim fikricha, yuqori ijodiy ega insonlarda shakllangan tasavvur, yuqori sezgi, o‘zini-o‘zi namoyon etish, nostandart vaziyatlardagi fikrlash, o‘z imkoniyatlarini ishlata olish qobiliyati bilan ifodalanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalarda kreativlikni shakllantirish – bu faqatgina bilim olish jarayonining bir qismi emas, balki ularning katta hayotga, ijtimoiy muhitga va shaxsiy hayotiy imkoniyatlariga munosabatini noodatiy qarash asosida yaratishdir. Kreativ fikrlash talabalarni mavjud stereotiplardan qochish, yangicha g‘oyalarni ishlab chiqish, muammoga o‘zgacha yechim topish va o‘z qarashlarini ijtimoiy hayot uchun foydali faoliyatga olib borishga undaydi.

Bizning fikrimizcha, ta’limning asosiy maqsadi shaxs rivojlanishining optimal shartlaridan iborat. Bunda talaba nafaqat bilim olish balki berilgan bilimlarni o‘zlashtirib olishi uchun ham harakat qilishi kerak. Shaxsning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo‘naltirish, muammo va faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil tushunish, imkoniyatlarini o‘z-o‘zini rivojlantirishga sarflash kabilarni maqsad qilib olingani aynan kreativ fikrlashga bo‘lgan ehtiyojni talab qiladi.

Xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi amaliyotida talabani kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan sifatarni shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko‘plab metod va strategiyalar qo‘llaniladi. Bular jumlasiga keys stadi, loyihaviy ta’lim, vittagen, dizayn fikrlash, sinergetik ta’lim, skamper kabilarni kiritish mumkin. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talabalarni o‘quv materiallari yuzasidan chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Shuning uchun kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarni interfaol turlaridan, kreativ fikrlashni rivojlantirish

metodlaridan va ijodiy ta'lim muhitini yaratish uchun skanperdan foydalanish lozim. Bunday muhit qulay vaziyat, har qanday ijodiy mahsulotni qabul qilish, rag'batlantirish bilan xarakterlanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida talabalarning kreativ tafakkuri ularning shaxsiy va ijodiy o'sishida, kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lib yetishida, shaxsiy va axloqiy nuqtai nazardan komil bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan, talabalarda kreativlikni rivojlantirish jamiyatning shaxs oldiga qo'yadigan vazifalarini to'la to'kis anglash, mavjud muammoli vaziyatlarga yangicha ko'z bilan qarash, konstruktiv yondashuvlar asosida fan va jamiyatga yangiliklar kiritish jarayonidir.

Tavsiyalar

Talabalarda kreativlikni rivojlantirish uchun individual yondashuvni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaning o'ziga xos qiziqishlari va iste'dodlarini o'rganish uchun individual suhbatlar o'tkazish, so'rovnomalar, yordamida ularning ijodiy potensialini aniqlash kerak.

2. O'quv jarayonida talabalarga o'zlarining qiziqishlariga, qobiliyatlariga mos loyihalar yoki vazifalarni tanlash imkoniyatiga ega kerak. Bunday holatda ular ishga ijodiy yondashib, o'z salohiyatini namoyon etadi.

3. Talabalarga real hayotiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan vazifalar bo'lishi lozim. Natijada ular to'plagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishadi. Bu ularning muammoga ijodiy yondashish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Talaba shaxsiy mentoriga ega bo'lishi kerak. Bu ustoz, yo'lboshlovchi demakdir. Mentor talabaning ijodiy g'oyalarini qo'llab-quvvatlashi, xatolardan qo'rqqmaslikka undashi, tajribalari bilan bo'lishishi, ilhomlantirishi, uni to'g'ri yo'naltirishi bilan muhim ahamiyatga ega.

5. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini kashf etish, o'z salohiyatlarini namoyon etishga sharoit yaratish, turli tanlovlar, loyihalar, tadbirlar tashkil etish va ularni o'ziga xos tarzda rag'batlantirish, ijodiy yutuqlarini e'tirof etish talabalarning kreativligini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi.

6. Oilada, ta'lim muassasasida, umuman olganda, jamiyatda mustaqil va erkin fikr, noodatiy yondashuv va yangiliklarga ochiq va ularni qadrlaydigan, yosh avlodning ijodiy qobiliyatini qo'llab-quvvatlaydigan, psixologik sog'lom muhit yaratish bugunimiz va kelajagimiz farovonligiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guilford J. Creativity. New York: McGraw-Hill, 1967.
2. Rogers, C.R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin Company. pp. 350-351
3. Torrance, E. P. Understanding Creativity: Where to Start? Psychological Inquiry, Vol. 4, No. 3. (1993), pp. 232-234.

4.Ильин, Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности.: Питер; СПб.; 2009. С. 188-189.

5.Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 9